

INGLIZ TILINI ORGANISHDA ANALITIK KO'NIKMALARNING AHAMIYATI

Xamdamova Nasibaxon Boxodir qizi*Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va**Psixologiya fakulteti 2-kurs magistranti***ARTICLE INFO****ABSTRACT:****ARTICLE HISTORY:***Received:17.04.2025**Revised: 18.04.2025**Accepted:19.04.2025**Ushbu maqola bugungi kundagi ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda samarali usullar va ulardan foydalanishga qaratilgan.***KEYWORDS:***Chet tillarini o'rganishning samarali usullari,bugungi kundagi samarali metodlar,bugungi kundagi zamonaviy texnologiyalar,Eshitib o'rganish va uning samarali usullari.*

Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda.Chet tillarini o'rganish va o'rgatishning samarali usullarini yaratish bugungi kun talabidir.Avvalo,chet tillarini o'rganishni bolalarga maktabgacha ta'lim va maktablardan boshlangani birmuncha qulay va yaxshi natija beradi lekin bir qancha sal'biy tomonlari ham bor fikrimcha.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bugungi kunda chet tillari o'rgatiladi.Hali o'zbek tilini yaxshi bilmagan bolaga chet tilini o'rgatish qanchalik samara beradi.Fikrimcha ,anchayin katta foyda bermaydi.Amaliyot mobaynida,bir necha oy va hozirgi kunda ham maktablarga amaliyot uvhun tashrif buyurayapmiz.Amaliyot mobaynida ham boshlang'ich sinflarda chet tili darsiga kirganimizda,bolalarning o'zini tutishi va darsga bo'lgan ishtiyoqini kuzatamiz.Bolalar,maktabga endi qadam qo'ygan,darsda o'tirishga ham unchayin sabrli emas,endi biz ularga chet tilini o'rgatmoqdamiz,ahir ularning orasida hali o'z ismini ham to'liq va ravon ayta olmaydiganlari bor.Bunday paytda,o'quvchilarni darga qiziqtirish va ularni chet tillariga bo'lgan qiziqishini orttirish o'qituvchining mahorati va foydalanayotgan usullariga bog'liq.Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida,ta'lim olish

uchun barcha shart sharoitlar bor. Maktablardagi ta'lim jarayoni zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda, zamonaviy metodlarga tayangan holda olib borilmoqda. O'tgan asrlardagi kabi siyohga botirilib yoziladigan ruchkalar, taxtalardek doskalar bugungi kunda havas qilgudek holga o'zgargan. Hozirda maktablarda har bir fan uchun alohida dars xonalari, dars uchun ko'rgazmali qurollar o'qishga layoqati va hohishi yoq bo'lgan o'quvchini ham o'z domiga torta oladi. Chet tillarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar katta yordamchi va o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun yaxshi qurol bo'la oladi. Ammo darsga kerakli barcha narsalar bo'la turib, o'qituvchida tajriba yoki metodika yetishmasa, barcha narsalarning muhayyoligi afsuski hech qanday foyda bermaydi. Dars jarayonida berilgan mavzuni o'quvchilar qiziqqan tarzda o'rgatish, hozirgi kunda eng samarali metodlardan biri. Misol tariqasida 8-sinfni olamiz. Bu sinfdagi barcha o'quvchilar qiziqqon, zamonaviy, turli hildagi musiqa shaydolari. Bu sinfdagi yaxshi natijaga erishish uchun o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib yo'l tutish eng samarali usul bo'ladi. Sinfnings deyarli barcha o'quvchilari bugungi kundagi zamonaviy musiqalarni sevib tinglaydi, demak o'qituvchilar ya'ni biz ham ular kabi zamonaviy bo'lamiz. Qaysi ma'noda, albatta dars jarayonidan kelib chiqib. Bu sinfdagi o'quvchilarga, birorta musiqani tinglatib shuni aytib berin deya so'ralsa hech ikkilanishsiz barcha o'quvchilar aytib bera oladi. Bizning mavzuda esa hozir "Wild animals". O'qituvchi bu jarayonda mavzuga oid so'zlarni birlashtirib bir musiqa tarzida o'quvchilarga aytib bersa, dars jarayoniga tobi yoq, til o'rganishga qiziqmaydigan o'quvchi ham musiqaga o'zi sezmagan holda e'tibor bera boshlaydi. Buni o'qituvchi o'zi musiqa tarzida aytib, so'ng o'quvchilardan aytib berishini so'rsa, albatta har bir o'quvchi aytib beradi. To'g'ri bu chet tillaridagi gramatik mavzularga to'g'ri kelmaydi biroq hech qanday natijaga erishmasdan dars uchun ajratilgan 45 daqiqani bekor ketkizgandan anchagina yaxshi deb o'ylayman. Zamonaviy texnologiyalar dars jarayonini birmuncha tezlashtiradi va til o'rganish jarayonini ham tezlashtirmay qolmaydi. Bugungi kunda 1-sinf o'quvchilari uchun ham chet tili darsi joriy etilgan. Afsuski men o'qigan paytta bunday emas edi. 1-sinf o'quvchilari hali o'zbek tilida ham o'zlari haqida ravon gaprib berolmasa chet tilida nima o'rgana oladi, degan savol tug'uladi albatta. 1-sinlarga aynan chet tilida so'zlashish o'rgatilishi ko'zda tutilmagan, mening fikrimcha. Ularga atrof muhitdagi ular har kuni uchratadigan narsalari, sevimli hayvonlari, sevimli fasllari, ota onasi, opa ukasi va ular kundalik ishlatigan so'zlarni "ESHITISH" orqali bir yilda o'rgatish katta natija va bugungi kunga o'qituvchilar mana shu natijaga erishayapti. Nega aynan eshitish orqali. 1-sinf o'quvchisi hali o'zbek tilida ham yozishni yaxshi bilmaydi. Lekin ularga eshitsu orqali, rasmlarni ko'rsatish orqali so'zlarni o'rgatish samarali foyda beradi. Buning uchun o'qituvchiga, eshittirish uchun zamonaviy texnologiyalar kerak bo'ladi. Shu jarayonda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati qanchayin kattaligini ko'ra olamiz. Aynan "ESHITIB" o'rganish, til o'rganish jarayonining muhim bo'g'inlaridan biri. Aynan 1-sinflar uchun emas, barcha o'quvchilar uchun qo'llaniladigan usullardan biri. "ESHITIB" o'rganish o'quvchini diqqatini bir joyga

jamlay olishiga, o'rganilayotgan mavzuni yaxshiroq tushunishiga, chet tilidagi talaffuzni chuqurroq o'rganishga eng asosiysi chet tillariga bo'lgan qiziqishini orttirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev, Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifadir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma hosil qilmasak bugungi davr shiddati, fan texnikaning misilsiz yutuqlari bilan ham qadam bo'la olmaymiz.

2. G'. Muhammedov, U. Khojamqulov, S. Toshtemirova "Pedagogik ta'limda innovatsion ta'lim klasteri".

3. Abdumuminov, B. R., Eminov, R. I., & Gulomov, K. K. (2023). UNDERSTANDING FETAL CIRCULATION AND THE TRANSITION TO POSTNATAL CIRCULATION: SHUNTS, PLACENTA, AND CONGENITAL HEART DEFECTS. Экономика и социум, (6-1 (109)), 14-21.

4. Gulomov, K. K., Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Kholikov, B. M., & Meliboev, R. A. (2025, February). IMPROVING THE TREATMENT OF COMPLICATIONS IN ENDOUROLOGICAL OPERATIONS FOR UROLITHIASIS. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 31-33).

5. Ugli, G. K. K. (2025, February). SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS IN KIDS: EEG & MRI TRENDS PRE-AND POST-2023. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 28-30).

6. Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2025). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE, AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 419-430.